

**AYOL XONANDALARNING OVOZ IMKONIYATLARI MATLYUBA
DADABOYEVA MISOLIDA****Pirmatova Nodira Yigitaliyevna***Yunus rajabiy nomidagi o'zbek milliy musiqa san'ati instituti maqom xonandaligi"
Kafedra mudiri, dotsent, O'zbekiston respublikasida xizmat ko'rsatgan artist.*

O'zbek milliy musiqa san'ati juda qadimiy tarixga ega. Buni milliyasarlarmizning, cholg'u sozlarimiz va kuylarimizning mukammalligidan bilishimiz mumkin. Musiqa san'ati ijrochiligida an'anaviy xonandalik boshqa yo'nalishlarga nisbatan keng qamrovli, yetakchilik xususiyatiga ega yo'nalishdir. Musiqaning mukammalligi, sehri, zabardastligi hamda ifodaviyligi xonanda talqinida to'laqonli ifodalanishi muqarrar. Shu bilan birga inson ovozi jamiki sozlarning asosidir. Tarixda nimaiki yaratilgan bo'lsa, kashf etilgan bo'lsa, musiqiy cholg'ular namunasida bo'lsa, unga, albatta, inson ovozi ibrat bo'lgan. Shu bois, inson ovozining imkoniyatlari, sir-u sinoatlari, turli mezonlariyu behisob jozibalari bashariyatni hayratga soladi. Bu asrnlarni idroklash uchun kashfiyotlar, turli urinishlar, ilmiy va ommabop tadqiqotlar olib borilgan. Bu jarayon zamonamizda ham o'z oqimida davom etib, turli yo'nalishlarda izlanishlar olib borilayotganligi quvonarlidir.¹

O'zbekiston Respublikasi xalq artisti Matluba Dadaboyeva butun umrini maqom qo'shiqlarini kuylab, tinglovchilarga ma'naviy ozuqa berishga bag'ishlagan ustoz san'atkorlardan. Uning ijrosidagi o'lmas taronalarni bir nechta avlod vakillari tinglab, voyaga yetgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Matluba Dadaboyeva «Mehnat shuhrati» ordeni hamda «Tojikiston Respublikasi xalq artisti» unvoniga loyiq ko'rilganlar.²

O'qituvchi o'quvchilar ovozini tarbiyalashda vokal pedagogikasi uslublaridan hamda turli pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish orqali bolalarning dunyoqarashi, fikrlashi, tushunchasi rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki musiqa ta'siri ostida bo'ladigan har qanday hissiy, badiiy, emotsional kechinmalar esa, ayniqsa yosh bolalar qalbida o'ziga xos yuksak oliyjanob his-tuyg'u, kechinmalarni uyg'otadi, ularni «oliyjanob va mehribon» qilib tarbiyalab boradi. Chunonchi, buyuk kompazitor D.Shostakovichning quyidagi fikrlarida musiqaning naqadar sehrli va jozibador ekanligini anglashimiz qiyin emas: «Buyuk musiqa san'atini seving. U sizga olam jaxon ulug' hislar, jo'shqin kayfiyat va fikrlar hosil qiladi. Sizni ruhan boyitadi, pok qiladi, kamolga yetkazadi. Musiqa tufayli siz o'zingizda yangi kuch sezasiz, u sizni barkamol inson darajasiga yaqinlashtiradi»³

O'zbek an'anaviy xonandalik san'ati amaliyotida juda ko'p ovoz turlari uchraydi. Mutaxassis xonandalar tomonidan ular o'z xususiyat va sifatlaridan kelib chiqib nomlanib kelingan. Masalan: «Tik ovoz», «Dovudiy ovoz», «Kuchli ovoz», «Xasta ovoz», «Dardli ovoz», «Manqa ovoz», «G'alati ovoz», «Baqiroq ovoz», «Mungli ovoz», «Qo'ng'iroq ovoz», «Yoqimli ovoz» va x.k. Xonandaning ovozi faqat ularning eshutilishi bilan emas, balki ijro diapozoni, ovozning ohangdorligi, talafuzning to'g'riligi, hush yoqimligi bilan ham xarakterlanadi. Ovozlarining balandligi nuqtai nazardan past va yuqori registrlarga bo'lish mumkin. Odatda, registr tushunchasi ovoz diapozonining bir qismini tashkil etadi.⁴

Ijro madaniyati - san'at insoniyat ma'naviyatining ko'zguvidir. San'atkor ana shu ko'zguni yaratuvchisi, asrovchisi, davomi ettiruvchisi va kelajagi hisoblanadi. Qaysiki xalq

buyukdir uning san'ati va san'atkori ham buyuk va beqiyos bo'ladi. Bu xususda o'zbek musiqa san'atining qadimiy va boy, ko'p qirrali hamda zamon bilan doimo hamnafas rivojlanib kelganligini e'tirof etish lozim. Boy musiqiy merosni ijodkori hamda ijrochilari esa shunga mos, buyuklikka xos zabardast sozanda va xonandalardir. Ular tarix davomida asralib, avloddan-avlodga avaylanib sharaflari «hofiz» nomini munosib ardoklab kelmokdalar.⁵

Matlyuba Dadaboyeva bo'lib o'tgan sodda, kamtarona, samimiy suhbatga e'tiborimizni qaratamiz:

– San'at sohasiga endigina kirib kelayotgan hamkasblaringiz ijodini kuzatib, ulardagi qaysi kamchiliklar e'tiboringizni tortadi?

– Maqtanishga yo'ymang-u, biz o'z sohamizga juda ham fidoyi edik va haligacha shundaymiz. Mablag' topish ilinjida to'yma-to'y yurib, kasbimizni ikkinchi darajaga qo'ymasdik. «Mana bu ashulani zudlik ila yodlab, tezroq to'ylarda aytishim kerak», degan fikr miyamizda bo'lmagan. Faqat ustozlardan yangi qo'shiqlar sirini haftalab, oylab o'rganib, so'ng ijro etardik. Hozirgi xonandalarning juda ko'pi o'zini biznesga uryapti. Bu bir tomondan yaxshi, ammo ikkinchi tarafdin milliyligimizga biroz putur yetkazib, befarq qaraydigan bo'lib qolishdi. Nodir asarlarimiz borligini yillar o'tib tushunishadi, ammo unda juda kech bo'ladi, qattiq afsuslanishadi.⁶

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.XONANDALIK OVOZLARINING MAQOMOTDA TUTGAN O'RNI VA

AHAMİYATI, Abdullayev Lochin Tolipovich, 358-359-b

2.<https://zamin.uz/uz/madaniyat/43933-matluba-dadaboeva-ayrim-sanatkorlar-va-zieda-haqida-nima-deydi.html>

3.MUSIQADA O'QUVCHILAR OVOZINI TARBIYALASHDA VOKAL SAN'ATINING YANGI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'RGATISHNING AHAMIYATI Omonov Hasan Sulaymanovich, Savapov Rashid Irkinovich, 7-b

4."Oriental Art and culture" Scientific Methodical Journal, **O'ZBEK AN'ANAVIY XONANDALIK SAN'ATI AMALIYOTIDA JUDA KO'P OVOZ TURLARI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATI** Ma'rufjon Abdumutalibovich Ashurov

5.."Oriental Art and culture" Scientific Methodical Journal, **O'ZBEK AN'ANAVIY XONANDALIK SAN'ATI AMALIYOTIDA JUDA KO'P OVOZ TURLARI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATI** Ma'rufjon Abdumutalibovich Ashurov

6.<https://zamin.uz/uz/madaniyat/43933-matluba-dadaboeva-ayrim-sanatkorlar-va-zieda-haqida-nima-deydi.html>

Xolmatova Dilfuza Maxmudovna*Jizzax viloyati Zomin tumani 1-maktab ona tili adabiyot fani o'qituvchisi*

Dunyoda tillar ko'p, ammo har bir xalqning, har bir jamiyatning o'zi uchun qadrlil bo'lgan qadim-qadimdan shakllanib, sayqallanib kelayotgan tili mavjud. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov: "Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tiliga muhabbat-yuksak ma'naviyat belgisi. Ona tili-millatning ruhi", - deb bejiz aytganlar. Til aynan jamiyatga, millatga tegishli bo'lganligi uchun ham uning xususiyatlarini jamiyat a'zolari ochib beradilar va bu tilning xalq orasida, jamiyatda qanday o'rin tutishini ham belgilab beradilar. O'z ona tilini anglab, qadrlab, uning yuksalishi uchun, boshqa xalqlar tillari orasida ham o'z o'rniga ega bo'lishi uchun oz bo'lsa ham o'z hissasini qo'shgan insonni adashmay xalqparvar, chinakam ma'naviyatli insonlar qatoriga qo'sha olamiz. Aksincha, tilimiz boyliklariga putur yetkazib, o'zining tiliga, oilasiga, jamiyatiga, xalqiga, qolaversa, o'ziga, o'zligiga hurmatsizlik qilayotgan inson esa faqat jaholat botqog'iga botadi, bu ham yetmaganidek yon-atrofida qilayotgan inson esa faqat jaholat botqog'iga botadi, bu ham yetmaganidek yon-atrofida qilayotgan inson esa faqat jaholat olib ketadi. Biz ota-bobolarimizdan qolgan ushbu muqaddas merosni asrab-avaylamog'imiz lozim. Zero, til jamiyatning ma'naviyati va madaniyati ko'zgasidir. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev: "Kimda-kim o'zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta'sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo'lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o'lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo'shiqlariga quloq tutsin". Darhaqiqat, ona tilimizning imkoniyatlari shunchalar cheksizki, uni anglash uchun onajonlarimiz alalariga quloq tutishimiz lozim, undagi joziba, latofatni hech qayerdan topa olmaymiz. Dostonlarimizga quloq tutsak, u orqali tilimiz naqadar boy til ekanligini anglaymiz. Chunki dostonlarimiz hajm va ma'no jihatdan eng yirik asar turlaridan biridir.

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi xalqimizning milliy mustaqillikka erishish yo'lidagi muhim siljishlardan biri bo'lib, ona tilimizning bor go'zalligi va jozibasini to'la namoyon etish bilan birga, uni ilmiy asosda rivojlantirish borasida ham keng imkoniyatlar yaratdi. 1989-yilning 21-oktabr kuni Vatanimizda davlat tilining huquqiy asoslarini belgilash bo'yicha "Davlat tili to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, unga ko'ra O'zbek tiliga — Davlat tili maqomi berildi.

Xalqimizning ko'p asrlik madaniy, ilmiy-ma'rifiy va badiiy tafakkuri, intellektual salohiyatining yorqin va bebaho mahsuli bo'lgan o'zbek tili jahondagi boy va qadimiy tillardan biridir. Istiqlol yillarida ona tilimiz tom ma'noda davlat tiliga aylanib, xalqimizni yurtimizda erkin va ozod, farovon hayot qurishdek buyuk marralarga safarbar etadigan beqiyos kuch sifatida maydonga cchiqdi.

Bugun O'zbekistonimiz «Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari» degan bosh tamoyil asosida taraqqiyotning yangi, yanada yuksak bosqichiga ko'tarilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida davlat tilining hayotimizdagi o'rni va nufuzi tobora oshib bormoqda.

Til nafaqat muomala vositasi, balki xalqning ma'naviyati, madaniyati, urf-odati, uning turmush tarzi, tarixi, eng muhimi mustaqillik belgisidir. Dunyoda 7 mingdan ortiq tillar muomalada bo'lib, dunyo aholisining 90 foizi 70 ta til'da so'zlashadi. 200 ta til davlat tili yoki rasmiy til maqomiga ega. Bugungi kunda dunyoning 50 milliondan ortiq aholisi o'zbek tilida so'zlashib, bu til'da so'zlashuvchilar soni bo'yicha dunyoda 27-o'rinda turadi. 6 ta (o'zbek, turk, qozoq, qirg'iz, ozarbayjon, turkman, uyg'ur) barqaror turkiy tillardan biri hisoblanadi. O'zbek tili dunyoning 60 dan ortiq universitetlarida, 200 dan ortiq maktablarida o'qitiladi.

O'zbek tilining ikki tomli izohli lug'atidan siqib chiqarib tashlangan ma'naviyat, ma'rifat, qadriyat, ibo, hayo va boshqa bir qancha o'zligimizni anglatib turadigan so'zlarimiz, istiqlolimiz sharofati ila nashr etilgan besh tomli "O'zbek tilining izohli lug'ati"ga kiritilgan. Bu barchamiz uchun quvonchli holat. Tilimizning boshqa tillarga qaraganda qanchalik boy til ekanligini XV asrdayoq Hazrat Navoiy o'zining "Muhokamat ul-lug'atayn" asari orqali isbotlab ketgan. U kishining "Tilga ixtiyorsiz, elga e'tiborsiz" degan fikrlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q, balki biz uchun dasturulamal vazifasini o'tab kelmoqda. Ammo bu fikrga barchaning birdek amal qilmasligi tanamizdagi og'ir va yuqumli kasallikka o'xshab bormoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta'biri bilan aytganda: "O'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyat" ekanligini har bir inson qalbdan his qilmog'i darkor.

Ammo ana shu buyuklikning qadriga hamma birdek etyaptimi?

Nima uchun ko'cha harakatini buzgan kishiga militsiya hushtak chaladi-yu, butun bir tilni buzayotgan odamlarga hech kim hushtak chalmaydi? Adibimiz Abdulla Qahhorning bergan bu savoli qachon o'z javobini topadi?

Rossiyalik tilshunos olim A. M. Kozlyanina: "O'zbek tili nafis va musiqa ohangidek jozibador" ekanligini tan olib turgan bir paytda "o'zbekman", deb yurganlar nima qilishyapti? Bu kabi og'riqli nuqtalarni sanasak, tilimizning ertasi hammamizni chuqur o'yga toldiradi.

"Tilimiz qacda buzilyapti?" deya o'zingizga savol berib ko'ring va ko'chaga chiqing. Ishga yoki o'qishga borar ekansiz, yo'l-yo'lakay atrofda qurilgan bir-biridan go'zal binolar, ko'p qavatli uylarni ko'rib ko'zingiz quvnasa, ularga qo'yilgan tilimiz uchun yot bo'lgan nomlarni ko'rib, ta'bingiz xira tortadi. Bozorga borsangiz, yurtimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga qo'yilgan nomlarda ham o'zbekcha so'zlarni deyarli uchratmaysiz. Bunday nomlar orqali tadbirkorlar xaridorlarning diqqatini tortishmoqchini yoki tilimiz shunchalik qqashshoq mi? Bugungi kunda nega ko'pchilik, ayniqsa, yoshlarimiz o'z nutqiga chet tillardagi turli so'zlarni qo'shib gapirishadi yoki o'sha tilni ham yaxshi bilishadimi? Yaxshi bilishsa-ku mayli, ammo... Tilimiz shunchalik qashshoqmi yoki bu ham madaniyatning bir belgisimi? Afsuski, mana shunday savollar bizni chuqur o'yga toldiradi. O'z ona tilini hurmat qilgan inson hech qachon tilni buzib gapirmaydi. Bugungi qo'shtirnoq ichidagi madaniyatli va zamonaviy yoshlar tilimizni qay darajada bilishar ekan? Ko'pgina chet ellarda o'zbek tilini o'rganishayotgan bir paytda tilning haqiqiy egalari uni buzib gapirishsa, qanchalik to'g'ri?

Tilimiz BMT minbarlarda yangraganda, bizning asarlar dunyoga tanilgan bir paytda, chet ellik talabalar tilimizni o'rganib, so'zlashayotgan bir paytda tilni "buzib" o'zgartirishimiz nechog'lik to'g'ri?

Milliyligimiz, yuksak qadriyatlarimiz timsoli bo'lgan jonajon tilimizni asrash har birimizning insoniy burchimizdir. Zero, tilimiz Milliy Davlatchiligimiz timsoli.